

ISHONCHNING MATEMATIKANI O'RGANISHGA TA'SIRI

Mahmudova Niginabonu

2 kurs Qo'qon davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi magistrani

Mahmudova Ozodaxon

Qo'qon davlat universiteti

Matematika kafedrasi, katta o'qituvchi

Annotatsiya

ushbu maqolada o'quvchilarning matematikani o'rganish jarayonida o'ziga bo'lган ishonchi qanday rol o'ynashi haqida fikr yuritiladi. Psixologik holatlarning o'quv faoliyatiga ta'siri, ayniqla, ishonch hissining matematik kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. tadqiqotda motivatsiya, o'z-o'zini baholash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash faktorlarining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: ishonch, matematika, o'quvchilar, motivatsiya, o'ziga ishonch, bilim olish, psixologiya.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqla, matematika kabi murakkab fanlarni o'zlashtirishda o'quvchining o'ziga bo'lган ishonchi katta rol o'ynaydi. O'ziga ishonch yuqori bo'lган o'quvchilar yangi mavzularni o'zlashtirishda faollik ko'rsatadi, xatolardan qo'rqlashtiradi va bilimlarni mustahkamlashga intiladi. O'qituvchilar ham bu holatni kuzatib, o'quvchilarning psixologik holatiga mos pedagogik usullarni tanlashlari lozim.

O'quvchilarda matematik fanga bo'lган ishonchni shakllantirishda o'qituvchining roli beqiyosdir. O'qituvchi o'z o'quvchisining psixologik holatini tushunishi, unga individual yondashuvi orqali ijobiy natijalarga erishishi mumkin. Dars jarayonida o'quvchining fikri e'tiborga olinishi, kichik yutuqlari e'tirof etilishi o'z-o'zidan o'quvchining ichki motivatsiyasini oshiradi. Ayniqla, "men bajara olmayman", "men noto'g'ri ishlayman" kabi salbiy o'z-o'zini baholashlardan voz kechishga yordam beradigan ijtimoiy va emotsiyal qo'llab-quvvatlash muhimdir.

Shuningdek, matematikaga bo'lган ishonch o'quvchining tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlovchi va o'ziga ishongan o'quvchi matematik masalalarga bir nechta yondashuvlarni ko'rib chiqadi, muammoni hal qilishda ijodiy yondashadi. Bu esa uning nafaqat bilim darajasini, balki o'ziga bo'lган ishonchini ham mustahkamlaydi.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, matematika fanini o‘rganishda yuqori ishonchga ega bo‘lgan o‘quvchilar ko‘proq matematik strategiyalarni qo‘llashadi, o‘z xatolarini tan olishga ochiq bo‘lishadi va mustaqil ishlashga intilishadi. Bunday o‘quvchilarda sinfdagi faol ishtirok, o‘z fikrini erkin ifodalash va boshqalarga yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

O‘quv jarayoniga texnologiyalarni jalg qilish ham ishonchni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Misol uchun, interaktiv dasturlar, onlayn mashqlar va virtual laboratoriylar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlab borishadi va real vaqtida natijalarni ko‘rib, o‘z kuchlariga bo‘lgan ishonchni orttirishadi.

O‘quvchilarning matematikani o‘zlashtirishdagi muvaffaqiyatini o‘lchashda birinchi navbatda ularda mavjud bo‘lgan ishonch darajasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. buning uchun psixologik metodlar, jumladan, o‘z-o‘zini baholash, sinovlar, va ijtimoiy-psixologik o‘rganishlar qo‘llaniladi. masalan, Bandura¹ o‘zining “self-efficacy” nazariyasida shaxsnинг o‘ziga bo‘lgan ishonchini shakllantiruvchi asosiy omillarni ta’riflagan².

Matematikani o‘rganishda motivatsiya va ishonchning ta’siri juda katta. ko‘p hollarda o‘quvchilarda matematika faniga qarshi qo‘rquv yoki shubha mavjud bo‘ladi, bu esa ularning matematikaga bo‘lgan ishonchsizliklarini kuchaytiradi. Pajares³ o‘zining tadqiqotida shuni ko‘rsatganki, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ularning matematika fanidagi muvaffaqiyatini oshiradi.

O‘quvchilarda ishonchni shakllantirishning psixologik asoslari juda muhimdir. o‘quvchilarda ijobiy ishonchni yaratishda psixologik texnikalar va metodlar, masalan, vizualizatsiya, o‘zini rag‘batlantirish, muvaffaqiyatlarga qaratilgan fikrlarni mustahkamlash kabi usullar samarali bo‘lishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar ishonchning matematikani o‘rganishda samaradorligini isbotlaydi. bir qator tadqiqotlarda ishonchni oshirish orqali o‘quvchilarning matematikadan o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgani ko‘rsatilgan. Bandura va pajaresning tajribalari bunga misoldir.⁴

Ishonchning shakllanishi va muvaffaqiyatga erishishida kognitiv va ijtimoiy omillar ham o‘z o‘rniga ega. O‘quvchilarning matematikaga bo‘lgan ishonchi, o‘zining o‘rganish jarayoniga yondashuvi va boshqalarning fikriga bo‘lgan munosabati natijasida shakllanadi.

O‘quvchilarning matematikani muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlarida o‘ziga bo‘lgan ishonch muhim rol o‘ynaydi. o‘qituvchilar o‘quvchilarning psixologik holatini hisobga olgan holda, ularda ijobiy motivatsiyani shakllantirishlari va har bir kichik yutug‘ini qadrlash orqali ularning ishonchini mustahkamlashlari lozim.

¹ Bandura, a. self-efficacy: the exercise of control. – new york: freeman, 1997.

² Azizxo‘jaeva n.n. pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – toshkent, 2020.

³ Abdullayeva g. shaxs psixologiyasi. – toshkent, 2019.

⁴ Pajares, f. self-efficacy beliefs in academic settings. review of educational research, 1996

Foydalaniman adabiyotlar

1. Azizxo'jaeva n.n. pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – toshkent, 2020.
2. Abdullayeva g. shaxs psixologiyasi. – toshkent, 2019.
3. Bandura, a. self-efficacy: the exercise of control. – new york: freeman, 1997.
4. Pajares, f. self-efficacy beliefs in academic settings. review of educational research, 1996.